

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.X.Raxmatova	
Naqshbandiya ta'limotida murosa falsafasiga munosabatning o'ziga xos xususiyatlari	98
X.A.Yulbarsova	
Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	102
A.B.G'ulomov	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning falsafiy jihatlari	107
B.Raxmanov	
Ibn Sinoning nochiziqli tafakkur asosidagi falsafiy qarashlarida sinergetik tamoyillar	110
N.A.Imomova	
Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari	117
L.R.Usmonova	
Falsafiy komparativistika qadimgi dunyo madaniy muloqoti muammolari kontekstida	122
B.S.Ganiyev, U.S.Maksumova	
O'zbekistonda tadbirkorlik madaniyati dinamikasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari	128
A.Tashanov	
Zigmund Freyd va Erix Fromm falsafasida inson destruksiyasining ayrim talqinlari	135
A.A.Qambarov	
Ma'rifatli avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy tahlili	140
D.X.Gafforova, I.I.Rizayev	
O'rta asrlar O'zbekiston maqbaralarida tug'larning islom va tangrichilikdagi muqaddas timsoliy vazifalari	144
J.J.Shodiyev	
Insonlarni qadrlash va uni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvatlashda din va falsafaning o'rni	150
D.O.G'afurov	
O'zbek milliy nikoh marosimlarining transformatsion xususiyatlari va uning ma'naviy qiyoysi	155

SIYOSAT

R.B.Mirzabayev	
Yangi O'zbekistonda davlat xizmati sohasi takomillashuvi jarayonlari	159
R.A.Ikramov	
Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda huquqiy ta'lim-tarbiya va ommaviy axborot vositalarning o'rni	168
D.Sh.Maxkamov	
Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati	173
M.M.Safarov	
Yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollari	177

ТАРИХ

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatining Andijon uyezdida paxtachilik va paxta sanoatining shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	185
M.F.Rasulov	
O'zbekiston minoralari haqida ayrim mulohazalar (qadimgi va o'rta asrlar davri)	190
M.H.Isamiddinov, M.H.Hasanov, N.Qambarov	
2022-yili Quva arkida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari	196
F.E.Atajanova	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar	200
B.T.Mirzaqulov	
Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi	204

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMINING KASBIY NUTQ MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY ZARURIYATI

СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

THE SOCIAL NECESSITY OF FORMING THE PROFESSIONAL SPEECH CULTURE OF
THE EMPLOYEE OF INTERNAL AFFAIRS BODIES

Alijonov Abbas Maxamadjon o'g'li¹

¹Alijonov Abbas Maxamadjon o'g'li

— Farg'on'a viloyati IIB Jamoat xavfsizligi xizmati
jamoat tartibini saqlash boshqarmasi patrul-post
xizmati batalyonni kadrlar guruhi inspektor.

Annotatsiya

Maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, umumkasbiy tayyorgarlikka qo'yilgan asosiy va birlamchi vazifalar, "kasbiy madaniyat" hamda "madaniyat" tushunchalari, lingvistik kompetentlik, haqida so'z boradi.

Аннотация

В статье говорится о развитии коммуникативной компетентности сотрудников органов внутренних дел, основных и первоочередных задачах общепрофессиональной подготовки, понятиях «профессиональная культура» и «культура», языковой компетентности.

Abstract

The article presents the development of communicative competence of employees of internal affairs bodies, the main and primary tasks of general professional training, the concepts of "professional culture" and "culture", linguistic competence.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, muloqot, "kasbiy madaniyat", shaxsiy madaniyat, lingvistik kompetentlik, til, nutq.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, общение, «профессиональная культура», культура личности, языковая компетентность, язык, речь.

Key words: communicative competence, communication, "professional culture", personal culture, linguistic competence, language, speech

KIRISH

Rasmiy faoliyat doirasida umumiy kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lish har bir soha xodimi uchun o'ta muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, ichki ishlar xodimining nutqiy aloqaga kirishishi muloqot jarayonida o'zaro ta'sir va axborot almashinuvining o'ziga xos va majburiy shakllarini bilishi xodimning professional kasb etikasiga ega ekanligini namoyon qiladi. Xizmat jarayonida jamiyatning turli guruhibiga mansub kishilar, ya'ni turli toifadagi fuqarolar, mansabdar shaxslar, jinoyatchi va jabrlanuvchi kabi xizmatga aloqador shaxslar bilan samarali muloqot o'rnatish talab etiladi.

Amaliy faoliyatda esa muloqot samaradorligining muhim sharti bo'lgan – suhabatdosh bilan aloqa o'rnatish, tinglash, so'zlash qobiliyati, muloqot jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan muloqot to'siqlarini yengish, ishontirish shaxslararo hamda guruhlararo aloqalarni oldini olish va neytrallash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Muloqot – bu til va nutq vositalarini tanlash ularni nutq jarayonida muloqot maqsadalariga mos tarzda o'rinni qo'llash orqali maqsadga erishishdir. Kishilar o'rtasidagi muoqotning samaradorligi turli omillarga bog'liq bo'lib, bu nutqiy faoliyatning ko'p qiraligini ko'rsatadi. Turli ijtimoiy jarayon va ekstremal vaziyatlarda ichki ishlar organlari xodimlari uchun zarur bo'lgan kommunikativ kompetensiyalar bilan bir qatorda nutqiy vaziyatlarga kirisha olish, muloqotda samaradorlikka erishish kasbiy tayyorgarlikka qo'yilgan asosiy va birlamchi vazifalardan biridir. Strukturaviy tarzda qurilgan aloqa kommunikativ maqsadlarga erishishning kaliti deyish mumkin.

Muloqot – bu nutqiy vaziyat ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning motivatsiyalashgan jarayoni bo'lib, u ishtirokchilar tomonidan qo'yilgan muayyyayan maqsadni

TILSHUNOSLIK

amalga oshirishga qaratilgan. Bu jarayon nutq faoliyatining muayyayan turlari bo'yicha kommunikatsiyalarning fikr-mulohazalari asosida davom etadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

"Mavzu" - "obyekt" munosabatida amalga oshadigan muloqot jarayoni ichki ishlar xodimlaridan nutqiy aloqa qoidalarini chuqr o'rganishni talab qiladi. Bu jarayonda og'zaki nutq madaniyatigina emas, balki yozma nutq madaniyatini egallah uchun ona tili meyorlarini puxta o'zlashtirish, nutq turi va mazmuniga mos tarzda yuz ifodalari, imo-ishoralar, vizual eshitish va taktil sezgilar yordamida muloqotga kirishish zarur bo'ladi.

Ichki ishlar xodimlariga xos bo'lgan kasbiy madaniyatning nutq madaniyati bilan uzviy rivojlantirilishi ichki ishlar organlari xodimlariga kasbiy madaniyat va kasbiy kompetentlikning mohiyati va mazmunini to'liq anglashga yordam beradi. Avvalo "Kompetentlik" (ingl. "competence" — "qobiliyat") — faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish.

ADABIYOTLAR TAHЛИI

Ma'lumki, "kasbiy madaniyat" tushunchasi "madaniyat" tushunchasiga nisbatan o'ziga xosdir. Shaxsiy madaniyat esa har qanday soha mutaxassisining kasbiy va nutqiy madaniyatining asosidir. Kasbiy madaniyat tushunchasi keng tushuncha bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 oktabrda qabul qilingan "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ham ko'rsatib o'tilgan[1].

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan nizomda davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalari belgilab qo'yilgan bo'lib, unda xodimlarning kasbiy madaniyati, xizmat faoliyati davomida va xizmatdan tashqari vaqtida tashqi ko'rinishi hamda kiyinish uslubi ham e'tiborga olingan. [2.]

Turli soha vakillariga xos bo'lgan kasbiy madaniyat tushunchasini tahlil qilish asosida turli soha mutaxassislarining kasbiy madaniyati fenomeni bilan ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyatining mohiyati va mazmunini oydinlashtirish mumkin bo'ladi. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlardan ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, psixologik kompetentlik, informatsion kompetentlik, ekstremal kompetentlik, kommunikativ va shaxsiy kompetentlik kabilar ichki ishlar organlari xodimlarining shaxsiy rivojlanishini takomillashtiradi.

V.V.Romanov ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga qo'shimcha ravishda uning barcha qismlarini ajratib ko'rsatishni taklif qiladi. Uning fikriga ko'ra, kommunikativ komponent ichki ishlar organlari xodimlarining muloqotning turli yosh va jinsdagi ishtirokchilari bilan shaxslararo aloqa o'rnatishga yordam beradi va u kommunikativ kompetensiya ularning kasbiy yaroqliligining eng muhim omillaridan biri ekanligiga e'tibor qaratadi. [3].

Turli sohalar uchun zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash zaruriyati dolzarb bo'lgan bugungi kunda ichki ishlar vakillaridan yuqori kommunikativ kompetensiyasi talab qilinishi tabiiy. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, ichki ishlar organlari xodimi kasbiy kompetensiyasining zaruri qismi lingvistik kompetentlik hisoblanadi. Ichki ishlar organlarida faoliyat olib borayotgan xodimlarning aksariyati turli sohalar kesimida bilim va malaka olganligini hisobga olsak, ularni ko'pchiligini lingvistik jihatdan faol emasligini ko'rish mumkin. Og'zaki va yozma nutq malakalarini talab darajasida egallah ichki ishlar organlari xodimining kasbiy faoliyatida rivojlanishining zaruriy sharti va ichki ishlar organlari xodimi malakasining muhim belgisidir.

Bugun jamiyat va ta'lif tizimida sodir bo'layotgan o'zgarish va olib borilayotgan islohotlar ichki ishlar organlari uchun tayyorlanayotgan xodimlar hamda ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini ham tubdan isloh qilinishini nazarda tutmoqda. Ayniqsa, ichki ishlar organlari tizimini tubdan takomillashtirish, soha xodimlarining bilim va ko'nikmalarini doimiy oshirish uchun xodimlar malakasini oshirish instituti oldiga qator amaliy hamda nazariy asoslarga ega bo'lgan vazifalarni bajarishni qo'yemoqda.

Ona tilida muloqot qilish ko'nikmasini egallah, ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash sifatini oshirish va ularning kasbiy nutq tayyorgarligi zaruratini to'liq anglab yetish davlat xizmatidagi kasbiy faoliyatning zamonaviy va ajralmas qismidir. Ichki ishlar organlari xodimi o'zining nutqiy xulq-atvorini nazorat qila olishi, shuningdek, har qanday ritorik madaniyat

so'zlashuvchilari bilan o'zaro muloqotga kirisha olish imkoniyatlari va vositalarini topishi kerak. Bu jarayonda esa davlat tilini to'liq egallahshning o'rni beqiyosdir.

O'zbek tili ta'limi, nutq madaniyatini ommalashtirish va o'zbek tilining nufuzuni oshirish masalalarining dolzarbligini mamlakatimizda olib borilayotgan til siyosatidan ham ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasida davlat tili hisoblangan o'zbek tili asosiy muloqot vositasi ekanligini, uning vositasida nutqiy maqsadga va kasbiy va kommunikativ kompetensiyaga erishish mumkinligini alohida ta'kidlash joiz. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy natijalari va shaxsiy muvaffaqiyatlari ko'p jihatdan kommunikativ kompetensiyanı qay darajada egallaganligiga va undan qanday foydalanishiga bog'liq.

Ta'lim islohotida amalga oshirilgan muhim ishlar qatorida shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ichki ishlar organlari tizimini isloh qilishga qaratilgan bir qator hujjatlarida ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi hozirgi talablarga javob bermasligi, tizimni tubdan qayta ko'rib chiqish hamda yanada takomillashtirish, shuningdek xodimlarni, shu jumladan ularni xizmat faoliyatidan ajratmagan holda o'qitish va doimiy malakasini oshirib borishning ichki ishlar organlari kadrlar salohiyatini oshirishga imkon beradigan sifat jihatdan yangi tizimini tashkil etish vazifasi belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 avgustdagagi PQ-3919-son «Ichki ishlar organlari boshqaruvi, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishslashning samarali tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga asosan yangi tuzilma, «Malaka oshirish instituti» tashkil etildi[4].

XULOSA

Malaka oshirish tizimi tinglovchilari bo'lgan ichki ishlar organlari xodimlarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning o'ziga jihatlari shundaki, ular malaka oshirish tizimiga qadar o'ziga xos kasbiy tajribaga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, kommunikativ kompetentlikni talab darajasida egallahsh kasbiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy shakli ekanligini fuqarolar bilan ishslash jarayonida tushunib yetgan tajribaga ega ichki ishlar organlari xodimlari uchun malaka oshirish o'quv kurslarida tashkillanishi maqsadli jarayondir. Ichki ishlar organlari xodimlariga yetuk kasbiy nutq madaniyatini o'rgatish tizimini shakllantirish esa funksional belgilangan vazifalarni hal etishning asosiy sharti hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy nutq madaniyatini rivojalantirish, kasbiy nutqqa tayyorlash muammolarini ishlab chiqish muhimligi hamda dolzarbligiga qaramay, haligacha ichki ishlar malaka oshirish dasturlariga alohida kiritilmagan. Bunday vaziyatning asosiy sabablaridan biri ichki ishlar organlari xodimlari nutqini rivojlantirish zaruriyatining yetarli baholanmaganligidir.

Ichki ishlar vazirligi tizimidagi malaka oshirish institutida ichki ishlar xodimlarining nutqiy kompetentligini o'stirishning tizimli yo'lga qo'yilganligi, bu borada zaruriy hamda yetarli adabiyot va qo'llanmalarning yaratilmaganligi inson intellekti uning nutqi bilan chambarchas bog'liq ekanligini to'liq anglamaslik bilan baholanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlari malakasini oshirish muassalarida tizimda faoliyat olib borayotgan xodimlarning kommunikativ kompetentligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish uchun uzluksiz tashxis tadbirlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ichki ishlar tizimini zamонави yondashuvlar asosida takomillashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi. Ichki ishlar organlarida faoliyat olib borayotgan xodimlarning muloqot olib borish kompetentligiga sezilarli ta'sir etuvchi omillarning tizimli tahlili asosida muloqot kompetentligini takomillashtirish modelini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish esa soha oldida turgan asosiy vazifalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Мажхамасининг 2022 йил 14 октябрда қабул қилинган "Давлат фуқаролик хизматчилари томонидан одоб-ахлоқ қоидаларига риоя этилишини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарори. <https://lex.uz/ru/docs/6236838>
2. <https://egov.uz/uz/news/kasbij-madaniyat-aslida-keng-tushuncha-618>.
3. Романов, В.В. Юридическая психология Текст. / В.В. Романов. М. : Юристъ, 1999.-488 с.
<https://daryo.uz/k/2018/12/07/ichki-ishtar-vazirligi-tizimida-yangi-malaka-oshirish-instituti-tashkil-etildi>